



DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLIISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Jumanov Jamshidbek

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura
va sirtqi ta'lim fakulteti Davlat boshqaruvi
huquqi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir ustuvor yo'nalishlar tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, uning davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'siri va uni bartaraf etishning zamonaviy usullariga qaratilgan. Tezisda shaffoflik, raqamlashtirish, fuqarolik jamiyatining ishtiroki, davlat xizmatchilarining halolligi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish tizimlari muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, davlat boshqaruvi, korrupsiyaviy xavf, oldini olish, shaffoflik, hisobdorlik, raqamlashtirish, fuqarolik jamiyati, etika va halollik, manfaatlar to'qnashuvi, proaktiv boshqaruv.

Kirish. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi, balki jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, huquqiy nihilizm, adolatsizlik kabi xavfli ijtimoiy muammolarning chuqurlashishiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy davlatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining ham ustuvor siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlaridan biri sifatida korrupsiyaning oldini olish masalasi ilgari surilmoqda.

Asosiy qism. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishda bugungi kunda nafaqat jazo mexanizmlariga asoslanmasligi, balki kompleks, tizimli va profilaktik yondashuvlarni o'z ichiga olgan strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Birinchidan, Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni shakllantirish – bu faqat jazolovchi choralarni kuchaytirish emas,



balki korrupsiyaviy omillarni dastlabki bosqichda aniqlab, ularni bartaraf etish, tizim ichidagi ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash, davlat xizmatlari sifati va shaffofligini oshirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu borada xalqaro tajriba – BMT, OECD, GRECO kabi nufuzli tashkilotlarning tavsiyalari, ISO 37001 va ISO 31000 standartlari hamda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borayotgan rivojlangan davlatlarning amaliyoti muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, elektron hukumat tizimi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi kabi chora-tadbirlar korrupsiyaning oldini olishning muhim yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan mol-mulk va daromadlarni deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali ochiqlik va ishonchlilikka asoslangan boshqaruv mexanizmlari shakllantirilmoqda.

Uchinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xorijiy hamda milliy tajriba, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashishning ahvoli, korrupsiyaning dinamikasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning bugungi kundagi holati tahlili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni belgilab qo'yish va ularni amalga oshirishning aniq tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish lozim: korrupsiyaga qarshi monitoring; korrupsiyaga qarshi xavf-xatarlarni tahlil qilish; korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish; normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish; korrupsiyaga qarshi milliy standartlarni shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish; moliyaviy kontrol va nazorat; korrupsiyaga qarshi cheklovlarni joriy etish; manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal etish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etish; korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza tayyorlash va e'lon qilish.



Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi monitoringni o‘tkazishning tashkiliy, metodik hamda huquqiy asoslarini ishlab chiqish va hukumat qarori asosida tasdiqlab amaliyotga joriy etish lozim. Bugunda korrupsiga qarshi monitoring respublika miqyosida, hududlar, tarmoqlar hamda sohalar kesimida amalga oshirilishining aniq metodologik hamda tashkiliy asoslarini belgilash maqsadga muvofiq¹.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi monitoring quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan huquqiy normalarning amaliy qo‘llanish samaradorligini tahlil qilish; davlat organlari, tashkilotlari, davlat-xususiy sherikliklari va shuningdek xususiy sektor subyektlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini o‘rganish; ommaviy axborot vositalari, internet resurslari hamda fuqarolik jamiyati vakillari orasida shakllanayotgan ijtimoiy qarashlar va munosabatlarni tahlil qilish; jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha bildirgan fikr va murojaatlarini ko‘rib chiqish; sodir etilgan korrupsion xatti-harakatlarning asosiy sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va baholash; korrupsiyaviy xavflarning ijtimoiy idrok etilishi va ularning jamiyatda namoyon bo‘lish shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov natijalarini tahlil qilish; korrupsiyaga oid huquqiy statistika ma’lumotlarini tizimli o‘rganish; shuningdek, korrupsiya eng ko‘p uchrayotgan hududlar, iqtisodiy tarmoqlar va sohalarda mavjud omillarni aniqlash va ularni nazorat tartibida o‘rganish.

To‘rtinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy poydevori – bu davlatning ushbu illatga qarshi olib borayotgan siyosatining asosiy kafolatidir. Huquqiy baza mustahkam bo‘lmasa, amaliy harakatlar samarasiz bo‘ladi. Bugungi kunda O‘zbekiston “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilgan bo‘lsa-da, bu qonunning mazmun va funksional qamrovi yanada takomillashtirilishi zarur.

¹ Primov Farhod. “Davlat Boshqaruvida Korrupsiyaga Qarshi Kurashishning Ma’muriy-Huquqiy Jihatlarini Takomillashtirish – Онлайн-сообщество юристов.” Justy.uz, 2023, justy.uz/books/davlat-boshqaruvida-korrupsiyaga-qarshi-kurashishning-mamuriy-huquqiy-jihatlarini-takomillashtirish/.



Korrupsiyaga oid jinoyatlar tarkibining muhim jihati ularning yuzaga kelishiga turtki bo‘layotgan sabab va shart-sharoitlar, jumladan, davlat organlari faoliyatida shaffoflikning yo‘qligi, jamiyatda huquqiy ong, huquqiy madaniyatning rivojlanganligi darajasi zaifligi va qonunlarni bilish va qonunlarga itoat qilish malakalari bilan bog‘liq. Bu elementlarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyat hayotining turli jabhalarida korrupsiyaning tarqalishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi².

Shu bois, Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina bitta idoraning ishi emas. Bu ko‘p tomonlama hamkorlikni talab qiladigan tizimli jarayondir.

Vakolatli organlar hisoblangan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Hisob palatasi, Soliq qo‘mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Markaziy bank, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va boshqalar. Bu organlarning funksiyalari o‘zaro takrorlanmasligi, huquq va majburiyatlar aniq bo‘lishi kerak. Muvofiqlashtiruvchi mexanizm: Muvofiqlashtirish masalasi bo‘yicha yagona platforma – masalan, maxsus muvofiqlashtiruvchi kengash (inter-agency coordination council) tashkil etilishi mumkin. Hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida mustaqillik va muvozanatni ta‘minlash korrupsiyaning tizimga singib ketishining oldini oladi.

Beshinchidan, Har bir davlat organining korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha strategiyasi va yillik hisobotlari bo‘lishi lozim. Bu hisobotlar jamoatchilikka ochiq bo‘lishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi xavf-xatarlarni tahlil qilish va huquqni qo‘llash amaliyotiga tadbiq etish ham juda muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi 2- va 5-sonli qarorlari asosida tasdiqlangan metodologiyaga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari, muassasalar hamda davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va

² “YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING YOSHLARGA “HALOLLIK VAKSINASI”NI SINGDIRISHDAGI AHAMIYATI” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani Qarshi, 2024-yil 23-dekabr



baholash mexanizmlari belgilab qo'yilgan. Ushbu metodologiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi (risk xaritasi);
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks dastur;
- korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;
- korrupsiyaga moyil bo'lishi mumkin bo'lgan munosabatlarning elektron reyestri.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish natijalari bevosita huquqni qo'llash faoliyatiga integratsiya qilinishi zarur. Buning uchun tahlil natijalarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qo'llashning aniq va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, jumladan, xavflar xaritasiga asoslangan ichki audit va nazorat tizimlarini yaratish muhimdir.

Oltinchidan, Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishning ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish harakati faqat davlat organlarining majburiyati bo'lib qolmasdan, butun jamiyatning umumiy vazifasi sifatida qaralishi lozim. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi kurashning natijadorligi bevosita fuqarolarning ushbu hodisaga bo'lgan munosabati bilan bog'liq. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatini qaror toptirishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Biroq korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirishga oid aniq va universal metodologik yondashuvlar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shunga qaramay, mavjud tahlillar asosida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

Huquqiy targ'ibot va ta'limni rivojlantirish – korrupsiyaga qarshi targ'ibot tadbirlarini tizimlashtirish, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish orqali fuqarolarda halollik va qonuniylikka intilishni kuchaytirish kerak.



Axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash – korrupsiyaga qarshi axloqiy mezonlarni keng targ‘ib qilish, halollik, adolat va javobgarlik kabi qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish muhimdir.

Murosasizlik muhitini shakllantirish – jamiyatda korrupsiyaga nisbatan qat’iy salbiy munosabatni shakllantirish, bu holatga ko‘z yumish, unga befarqlik bilan qarashga qarshi kurashish dolzarbdir.

Yettinchidan, Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi profilaktikaning muhim chora-tadbirlaridan biri bu – normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini maxsus ekspertizadan o‘tkazish amaliyotidir. Mazkur ekspertiza hujjatlarda mavjud yoki potentsial korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu ekspertiza orqali davlat organlari qonuniylik va shaffoflikka rioya qilish darajasini baholash imkoniga ega bo‘ladi. Amaliyotda esa ekspertiza natijalari asosida qonunchilik tashabbuslari takomillashtirilmoqda, ularning korrupsiyaviy risklari minimallashtirilmoqda. Shuningdek, bu tajriba davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirish va korrupsiyani ildizidan bartaraf etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

X.Xayitov korrupsiyaga qarshi ekspertizani o‘tkazish samaradorligini oshirish maqsadida mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilish, shuningdek korrupsiyaviy omillarni qonunchilikning muayyan tarmoqlarida yuzaga kelish sabablarini o‘rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhimligini ta’kidlagan³.

Sakkizinchidan, Rivojlangan davlatlar tajribasida korrupsiyaga qarshi kurashda milliy standartlarni joriy etish muhim o‘rin tutadi. Davlat, xususiy va kvazidavlat sektorlarida xodimlarning xulq-atvoriga doir standartlar ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

³ Хайитов Х.С. Қонун ижодкорлигида экспертиза ўтказишнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш: дис. афтореф ... юрид. фан. док-ри – Тошкент, 2018. – 6 21.



O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan davlat xizmatchilari odob-axloq qoidalari korrupsiyaga qarshi ba'zi normalarni o'z ichiga olgan. Biroq, ushbu normalar yagona standartlar sifatida shakllanmagan. Shu bois, davlat xizmatchilarining xulq-atvori bo'yicha yagona qoidalarni ishlab chiqish va ularda taqiqlar, cheklovlar, majburiyatlar hamda ruxsat etilgan harakatlarni aniq belgilash muhimdir.

Korrupsiyaning oldini olishda eng an'anaviy va samarali vositalardan biri moliyaviy nazorat hisoblanadi. Chet ellarda moliyaviy nazorat organlariga keng vakolatlar berilgan bo'lib, ular korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashda “xarid va tenderdagi korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik” bugungi kunning eng muhimomillaridan biridir deb hisoblaydi evropalik tadqiqotchilar⁴.

O'zbekistonda esa davlat fuqarolik xizmatchilarining daromad va mulklarini deklaratsiyalash tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, bu nazoratning faqat boshlang'ich bosqichidir. Bizningcha, xorijiy tajribani inobatga olib, jismoniy va yuridik shaxslar aktivlari, ularning manbalari va harakatlanishi ustidan kuchli moliyaviy monitoring mexanizmlari joriy etilishi lozim. Ayniqsa, pul yuvish holatlariga oid yuridik shaxslar ustidan alohida nazorat tizimi ishlab chiqilishi kerak.

To'qqizinchidan, Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish instituti mamlakatimiz qonunchiligi uchun nisbatan yangi bo'lib, ko'pchilik davlat xizmatchilari bu borada etarlicha bilimga ega emas.

Amaldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun manfaatlar to'qnashuvining umumiy ta'rifini bergan, biroq ularning oldini olish va hal qilish bo'yicha yagona va samarali mexanizmlar mavjud emas. Shuning uchun, xorijiy tajribadan kelib chiqib, barcha davlat va davlat ulushi yuqori bo'lgan tashkilotlarda manfaatlar

⁴ Conference of the States Parties to the United Nations Convention against Corruption (Abu Dhabi, United Arab Emirates, 16-20 December 2019).



to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va hal etishga qaratilgan aniq ichki tartiblarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillaridan biri bu — javobgarlikning muqarrarligidir. Ayrim davlatlar, masalan Singapur, bu borada maxsus repressiv choralarni joriy etgan bo'lib, korrupsion jinoyatlar uchun alohida javobgarlik tartibini amalda qo'llashmoqda. Hatto ayblilik prezumpsiyasi ham joriy etilgan.

Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha, O'zbekistonda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yishda samarali va qat'iy choralarni tatbiq etish lozim.

Xulosa. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish mexanizmi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi. Bunda jamiyatning faolligi, ayniqsa fuqarolarning murosasiz munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribada esa, korrupsiyaga qarshi kurash natijalari, muvaffaqiyatlar va kamchiliklar tahlil qilinadigan yillik milliy ma'ruzalar orqali bu jarayon oshkora yuritiladi. Shunga mos tarzda, O'zbekistonda ham fuqarolarning xabardorligi va ishtirokini rag'batlantirish lozim.

Shuningdek, bir qator olimlar sun'iy intellekt tizimlari orqali korrupsiya monitoringi, algoritmik aniqlash va “jamiyatni yurituvchi tizim” yaratish konsepsiyasi ham korrupsiyani oldini olishdagi eng yaxshi yo'llardan biri ekanligini ta'kidlashgan⁵.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash uchun yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishni xalqaro standartlarga moslashtirgan holda, milliy kontekstni hisobga olgan kompleks tizim sifatida shakllantirishi bugungi dolzarb vazifadir.

⁵ Nils Köbis, Christopher Starke, Iyad Rahwan. Corruption continues to be one of the biggest societal chal. Artificial Intelligence as an Anti-Corruption Tool (AI-ACT) -- Potentials and Pitfalls for Top-down and Bottom-up Approaches. Cornell Univesity. 2021. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2102.11567>



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Primov Farhod. “Davlat Boshqaruvida Korrupsiyaga Qarshi Kurashishning Ma'muriy-Huquqiy Jihatlarini Takomillashtirish – Онлайн-сообщество юристов.” Justy.uz, 2023, justy.uz/books/davlat-boshqaruvida-korrupsiyaga-qarshi-kurashishning-mamuriy-huquqiy-jihatlarini-takomillashtirish/.
2. “YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARNING YOSHLARGA “HALOLLIK VAKSINASI”NI SINGDIRISHDAGI AHAMIYATI” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani Qarshi, 2024-yil 23-dekabr
3. Хайитов Х.С. Қонун ижодкорлигида экспертиза ўтказишнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш: дис. афватореф ... юрид. фан. док-ри – Тошкент, 2018. – 6 21.
4. Conference of the States Parties to the United Nations Convention against Corruption (Abu Dhabi, United Arab Emirates, 16-20 December 2019).
5. Nils Köbis, Christopher Starke, Iyad Rahwan. Corruption continues to be one of the biggest societal chal. Artificial Intelligence as an Anti-Corruption Tool (AI-ACT) -- Potentials and Pitfalls for Top-down and Bottom-up Approaches. Cornell Univesity. 2021. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2102.11567>